



UDK: 811.512.133

Kamola ULUG'MURODOVA,
Prof. University Navoiy filiali katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: kamolamurodullayevna@gmail.com

"Gumanitar va aniq fanlar" kafedrasida o'qituvchisi f.f.n. dots. M.B.Xudoyorova taqrizi asosida

THE IMAGE OF LAYLI IN UZBEK CLASSICAL POETRY (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF LUTFIY AND H. KHORAZMI)

Annotation

In this article, the artistic interpretation of the image of Layli, used in the works of Maulana Lutfi and Hafiz Khorezmi, who made a significant contribution to the development of our classical poetry, is consistently analyzed. The content and essence of this phrase, how many times it was used in the work of poets, as well as its forms are explained in detail.

Key words: Lutfiy, H. Khorezmi, Layli, Majnun, image, symbol, poetry, classical, mysticism, friend, lover.

ОБРАЗ ЛАЙЛИ В КЛАССИЧЕСКОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЕНИЯ ЛУТФИЯ И ХАФИЗА ХОРАЗМИ)

Аннотация

В данной статье последовательно анализируется художественная интерпретация образа Лейли, использованная в творчестве Мауланы Лютфи и Хафиза Хорезми, внесших значительный вклад в развитие нашей классической поэзии. Подробно разъясняется содержание и суть этого словосочетания, сколько раз оно употреблялось в творчестве поэтов, а также его формы.

Ключевые слова: Лутфий, Х. Хорезми, Лейли, Меджнун, образ, символ, поэзия, классика, мистика, друг, возлюбленный.

LUTFIY VA HOFIZ XORAZMIY SHE'RIYATIDA LAYLI OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mumtoz she'riyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan Mavlono Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy ijodida qo'llangan Layli obrazining badiiy talqini izchil tahlil qilingan. Ushbu obrazning mazmun - mohiyati va shoirilar ijodida necha bor qo'llanganligi, shuningdek, uning shakllari batafsil izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: Lutfiy, H. Xorazmiy, Layli, Majnun, obraz, timsol, she'riyat, mumtoz, tasavvuf, yor, oshiq.

Kirish. O'zbek mumtoz she'riyati rivojiga munosib hissa qo'shgan Lutfiy Sharqda mashhur bo'lgan shoirlardan sanalgan. Uning ijodi haqida ma'lumot beruvchi ko'plab manbalar mavjud bo'lib, ularning ba'zilariga murojaat qilamiz. Jumladan, "Mavlono Lutfiy lirikasining ilk tadqiqotchisi va tashviqotchisi Alisher Navoiy bo'lib, uning shoir haqidagi yuksak sadosi vaqtlar davomida Sharqqa ham, G'arbga ham kirib bordi. Bu Lutfiy haqidagi keng qarashlarga zamin yaratib berdi" [Lutfiy, 2012: 11].

Hofiz Xorazmiy ham o'zbek mumtoz she'riyati tarixiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkor sanaladi. Uning ijodi Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlarning merosi singari Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek she'riyatining yuksak namunasi sanaladi. Xususan, "XIV asr oxiri va XV asr boshlarida o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib mukammal devon tartib bergan shoir ham Hofiz Xorazmiydir. O'zbek she'riyatining Hofizi da'vosini qilgan xorazmlik Abdurahimning bizgacha yetib kelgan ulkan badiiy merosi uning o'z da'vosida haqli ekanligining ochiq isbotidir" [Hofiz Xorazmiy, 1981: 7].

Darhaqiqat, har ikkala shoir ham o'zbek xalqi ma'naviyati, madaniyati hamda qadriyatlarini yuksalishida she'riyati bilan tasir etgan shoirlar sanaladi. Ularning ijodiy merosi ulkan xazina bo'lib, o'sha davr ijtimoiy va badiiy muhitidan so'zlovchi tilsim hisoblanadi. Chunki Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Adabiyot, san'at, va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" [www.xabar.uz]. Xususan, Yurtboshimiz "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusida so'zlagan nutqi orqali bugun va kelajak uchun shu sohada muhim masalalarni ustuvor ekanligini aniq ko'rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yillar davomida shoir Lutfiy ijodi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarimiz safi kengaydi. Xususan, A. Samoylovich, Y.E. Bertels, Sh.Sulaymonov, V. Zohidov, H. Zarifov, E. Rustamov, A. Qayumov, S. Erkinov, N. Mallayev, E. Ahmadxo'jayev kabilarning tadqiqotlari fikrimizga asos bo'la oladi. Chunki lirik

merosi orqali shuhrat topgan Lutfiy she'riyati o'ziga xosligi orqali ko'plab izlanishlarga sabab bo'lgan. Bu borada A. Hayitmetov shunday fikrlarni ilgari suradi: "O'z davrida "malik ul-kalom" faxrli unvoniga sazavor bo'lgan shoir boy adabiy meros yaratib, sodda va ravon uslubda ijod qildi. Uning so'z boyligi asos-e'tibori bilan jonli xalq tili hisobiga boyib bordi. Bu bilan u o'ziga zamondosh shoirlar – Atoyi, Sakkokiy, Gadoylarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi" [Hayitmetov, 1996: 92-94]. Mazkur ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Lutfiy o'z davrida "ustozlik maqomini olgan shoir" sifatida ulug'langan.

Hofiz Xorazmiyning ijodiy barkamolligi haqida adabiyotshunos Hamid Sulaymonov shunday ma'lumotlar bergan: "Badiiy mahorat, qofiya va radiflarning ustalik bilan tanlay bilishi, ajoyib lirik obrazlar yaratish olishi Hofiz Xorazmiyning yetuk san'atkorligidan dalolat beradi" [H. Xorazmiy, 1981:6]. Bunga biz shoirning 1981- yil nashr qilingan 2 kitobdan iborat devonidan o'rin olgan qasida, g'azal, qit'a va ruboiylari tahlili misolida guvoh bo'ldik. Chindan, shoirning g'azallarida qo'llangan obrazlar mazmun-mohiyati va badiiyati bilan mukammallik kasb eta olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada shoirning birgina Layli obrazi fikrimizga asos bo'la oladi. Mazkur obraz shoirning faqatgina g'azallari tarkibida qo'llangan bo'lib, ularning badiiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Lutfiy she'riyati turli xil mavzular va ular zamiriga singdirilgan g'oyalarning mazmun-mohiyatidan tashkil topgan. S. Erkinovning talqinicha: "Shoir devonidagi lirik asarlarning yetakchi mavzusi – ishq sanaladi. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo'lib aks ettiradi". [Erkinov, 2011:215]

Darhaqiqat, mumtoz she'riyatda "Ishq" oliy tushuncha sanalgan. Shu bois mazkur mavzuda ijod qilish shoirdan yuksak mahorat talab etgan. Bu esa shoirlarning ijod borasida qobiliyatini baholab bergan. Shoir Lutfiy she'riyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, mazkur mavzu mohiyatini batafsil yoritishda an'anaviy obrazlardan foydalanganiga amin bo'ldik. Ishimiz shoirning 2012- yil G'afur G'ulom nomidagi NMIU da nashr qilingan devoni

asosida bo'lib, unda shoir Layli timsolini uch o'rinda faqat g'azallari tarkibida qo'llaganligi ko'zga tashlandi. H. Xorazmiyning 1981- yil nashr qilingan 2 kitobdan iborat devonida Layli timsoli o'n uch o'rinda qo'llangan bo'lib, o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etgan.

Tahlil va natijalar. Shoirilar ijodini qiyosiy tahlil qilib, Layli timsoli bilan bog'liq o'rnlarni ko'zdan kechirganimizda,

№	Shoirilarning nomlari	Layli timsolini necha o'rinda qo'llaganligi	Layli timsolining shakllari	Ma'nolari:
1	Lutfiy	3 o'rinda	Layli	2 o'rinda- Majnunga suyuqlik yori, 1 o'rinda - go'zal xilqat,
2	H.Xorazmiy	13 o'rinda	Layli va Laylo	6 o'rinda -Majnunning suyuqlik yori, 4o'rinda -Yaratganning yerdagi tajallisi, 2 o'rinda-badiiy asar nomiga ishora, 1 o'rinda – tun .

Xorazmiy she'riyatida Layli obrazi quyidagicha o'rin olgan. Devonda tartib berilgan 10- g'azalning sakkizinchi bayti, 11- g'azalning maqta'si, 64- g'azalning maqta'si, 155- g'azalning ikkinchi bayti, 327- g'azalning oltinchi bayti, 340- g'azalning ikkinchi bayti, 497- g'azalning uchinchi bayti, 566- g'azalning birinchi bayti, 770-g'azalning uchinchi bayti, 772-g'azalning to'rtinchi bayti, 773-g'azalning to'rtinchi bayt, 1022- g'azalning oltinchi bayti, 1018- g'azalning yettinchi baytlarida turli mazmun-mohiyatda qo'llangan. Jumladan:

Ishq olamda gahi noz bo'lib, goh niyoz,
Goh Majnunu gahi otini Laylo qilisar. (340- g'azal)

Yoki:

Ishqi haqiqiy nogahon suvratg'a kelgan orada,

Olamning ichra oti gah Majnunu, gah Laylo emish. (497- g'azal)

“Ishq” tushunchasi mumtoz she'riyat vakillarining badiiy mahoratini namoyon etishda katta ahamiyat kasb etuvchi istiloh sanaladi. Uning asosi tasavvufiy qarashlarga ega bo'lib, o'zida zohiriy va botiniy ma'nolarni mujassam etgan. Shu bois, ishqning zamiriga singdirilgan mohiyat oddiy nazar orqali o'z ifodasini topmaydi. Mazkur tushunchani she'riyatda aks ettirish ijodkordan yuksak mas'uliyat talab etadi. Bu borada Hofiz Xorazmiyning ijodi fikrimizga asos bo'la oladi. Chunki shoir she'riyatini tahlil qilar ekanmiz, uning “Ishq” tushunchasiga nisbatan o'zgacha yondashuvi ko'zga tashlanadi. Xususan, shoir “Ishq”ni botiniy ma'nosini aks ettirishga katta ahamiyat qaratadi. Uning 340- g'azalining ikkinchi baytida va 497- g'azalining uchinchi baytida “Ishq” obrazlar qiyofasida o'zining botiniy ma'nosini ifoda etgan. Har ikkala g'azalda bir xil mazmun - mohiyat kasb etgan bu tushuncha shoirning o'ziga xos uslubini namoyon eta olgan. YA'ni 340- g'azalda: “Ishq” olamda noz-u niyozin ko'rsatsa, uning oti goh Majnun, goh Layli deb atalishi; 497- g'azalda Haqiqiy ishq suvrati chizilganda olam ichra uning oti goh Majnun, goh Layli bo'lishi fikrimizga asos bo'la oladi.

Shuningdek, shoir 11-g'azalining maqta'si, 340- g'azalining 2- bayti, 497- g'azalining 3- bayti, 566- g'azalining 1- bayti, 770- g'azalining 3- bayti, 772- g'azalining 4- bayti, 773- g'azalining 4- bayti, 847- g'azalining 2- baytlarida Layli timsoli misolida Ishqning turli mazmun- mohiyatda aks ettirgan.

Ma'lum bo'ladiki, “Ishq” botinda Ollohning ko'ngil uyi. Uni shoir Layli va Majnun obrazlari qiyofasida tasvirlashida ham ramziylik bor. Chunki Layli shoirlar talqinida Yaratganning yerdagi tajallisi sanaladi. Majnunning unga yetishish yo'lida chekkan mashaqqatlari Ollohning ko'ngil uyiga yetish bilan barobar ekanligiga qiyoslangan. Mazkur baytlarda Layli obrazi, bevosita, badiiy asar qahramoni nomiga ishora qilgan.

Mazmun-mohiyatni o'zaro o'xshatma tarzda shakllantirish Hofiz Xorazmiyning boshqa g'azallari tarkibida ham uchraydi. Xususan, shoirning 770-g'azalining uchinchi bayti, 772-g'azalining to'rtinchi bayti, 773-g'azalining to'rtinchi baytlarida Layli timsoliga bir xil munosabat bildirganligini ko'rishimiz mumkin.

Nechakim javr qilur, jonim o'zgani savmas,

Chu savmas o'zgani Layloning o'rnina Majnun. (770- g'azal)

Qaydakim borsam o'shul yorni jonim izdar,

Laylodin o'zgani savmadi chu hargiz Majnun (772- g'azal)

Do'stdin o'zgani man yod qila bilmasman,

ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga guvoh bo'ldik. O'xshash tomonlari timsolning mazmun- mohiyatida ko'ringan bo'lsa, farqli tomonlari obrazning shakllarida, lug'aviy ma'nolarida ko'zga tashlandi. Qolaversa, obrazning qo'llangan soni jihatdan ham farqlarini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizni quyidagi jadval orqali asoslaymiz.

Laylodin o'zgani yod etmadi, oriy, Majnun. (773- g'azal)

Mazkur baytlarda shoir Layli timsolini Majnunning suyuqlik yori ma'nosida qo'llagan. Ularda shoirning lirik qahramoni o'z yoriga bo'lgan sadoqatini Majnun Layliga bo'lgan muhabbatiga qiyoslamog'da. Chunki Majnun Laylidan boshqa yorga ko'ngil bermagani kabi shoirning lirik qahramoni ham do'stlaridan o'zgani yod eta olmasligini aytib o'tadi. Qolaversa, shoir talqinidagi oshiqning qayerda bo'lmasin, ko'ngil qo'ygani yorini izlashi, joni qancha jabr ko'rsa ham undan uzoq keta olmasligi kabi holatlari Laylidan o'zgani yod eta olmagan Majnun timsoliga taqqoslanmog'da.

Xuddi shu kabi mazmuniy takrorlik shoirning 10- g'azalining sakkizinchi bayti hamda 327-g'azalining oltinchi baytlarida uchraydi. Mazkur baytlarda shoir Layli timsoli orqali badiiy asar nomiga ishora qilgan. YA'ni 10-g'azalining sakkizinchi baytida shoir tasvirlagan oshiqni yorning xayoli butunlay band etishi, uning qora zulfini ko'rgandan so'ng devona ahvolga tushib qolishi, uning bu kabi ahvolini ko'rganlar “Layli va Majnun” hikoyatini butunlay unutib yuborishlari aks etgan bo'lsa, 327- g'azalining oltinchi baytida esa shoir tasvirlagan yorning chehrasini kimki ko'rsa, “Layli va Majnun” hikoyati afsona misoli unutilishi haqida so'z boradi.

Xayol-i zulfidin ko'rsang kecha sho'ru jununimni,

Unut bo'lg'ay hikoyati bila Majnuni ham Laylo. (10- g'azal)

Kim ko'rar bo'lsa niyozin birla nozin aytg'ay,

Layliyu Majnun hikoyoti erur afsonalar. (327- g'azal)

Shuningdek, Hofiz Xorazmiy ijodida Layli timsolining “tun” lug'aviy ma'nosiga ishora qilgan shakli ham uchraydi. Buni biz shoir devonidagi 1022- g'azalning oltinchi baytida kuzatamiz.

Tug'ar Majnunga kecha oftobi

Agar ko'rguzsa yuz layl ichra Laylo. (1022- g'azal)

“Tun, kecha, oqshom” ma'nolarini beruvchi “layl” so'zi Layli timsoli bilan juda yaqin uyg'unlik hosil qilib, shoir mahoratini namoyon etgan. Chunki mazkur so'zlar shoirlar tomonidan haqiqiy ishq mohiyatini ochib berishda, badiiy obrazlarning ruhiy holat va ichki kechinmalarini tasvirlashda katta ahamiyat kasb etgan. YA'ni agar Layli tun qorong'usida yuzini ko'rsatsa, Majnun uchun qorong'u tun oydin oftobni tug'ib berishi tasvirlangan. Tasavvuf nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, Haq jamoliga yetishgan solikning qalbi oftob nuri misoli yorishishi nazarda tutilgan. Yoki boshqa bir o'rinda:

Jon sha'mini yoqmoq yoqadur tesa tong ermas,

Majnun topib ul jon tilagi Laylini laylo. (1018- g'azal 7- bayt)

Bu o'rinda shoir oshiqning jismini sharga qiyoslagan. YA'ni oshiqning joni sham bo'lib yonsa-da uning yog'dusi tunga oydinlik berolmaydi. Shu bois, Majnun yonayotgan jismni ko'p ovvora bo'lmasligini ta'kidlaydi. Chunki lirik qahramon sham yongani bilan tunning yorishmasligini, bunga Laylining ishq to'sqinlik qilishini aytib roziligini bildirmog'da. Shunday bo'lsa-da, Majnunning birdan bir tilagi – Layli. Chunki u qop - qorong'u tunda Layli jamolini ko'rish baxtiga muyassar bo'lsa bo'lgani. Majnun uchun bu eng oliy baxt sanaladi. Aslini olganda, shoirlarning mazkur obrazlarni ulug'lashining siri – “Layli” timsolning-ilohey go'zallikni o'zining butun jismiga jo etganligidadir. Uning oshig'i sanalgan Majnun shu go'zallikni ko'ra olgan, Haq yo'lini ana shuni

anglashdan, unga yetishga intilishdan boshlagan majzubi solik bo'lganligidir" [Mo'llaxo'jayeve, 2019:30].

Lutfiy ijodida ham Layli timsoli o'ziga xos uslubni ifoda etadi. Jumladan,

Xayolingni yubor, Layli, mening holimni so'rmoqqa,
Ki Majnundin sening ishqing mening holim batar qildi.

Ma'lumki, "Layli" Haqning tajallisi zuhur etgan timsol" [Mo'llaxo'jayeve, 2019:30]. Shu bois uning jismida Yaratgan jamoli jilvalanadi. Haqiqiy ishqqa yug'rilgan bu go'zallikdan bahramand bo'lish oson emas. Chunki "Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi o'zlik qiladi" [Yusupova, 2018:128]. Buni faqat haqiqiy ishq sohib va sohibalari anglab etadi. "Haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy oladi. Bu borada Majnun ishq oliy namuna. Chunki u butun qalbi va jon dili bilan Allohni sevadi" [Mo'llaxo'jayeve, 2019:30].

Ma'lumki, Haq ishq tasavvufiy istiloh sanaladi. Najmiddin Kubro hazratlari aytganlaridek, "Ishq insonning yurak-bag'rini yondirguvchi bir otashdir. U aqlni shoshiltirar, ko'zni ko'r, quloqni kar aylar. Ammo u eng ulkan qo'rquvni ham kichraytirar, butun diqqatni ma'shuqaga jalb etar. Shu sababdan inson olamda uning go'zalligini ko'rar va shu go'zallikni sevar. Olam esa Ollohning go'zalligidir. Agar Ollohni kim shu nuqtai nazar ila sevs, olamni Olloh sevgisi bilan sevgan bo'lur. Tasavvufiy maslakda ishq – sevgining eng oxirgi darajasi va mukammal ko'rinishi sanaladi. Ishq maqomiga ko'tarilgunga qadar oshiq yana yetti darajada qalb va ruhni kamolga erishtirishi kerak" [Haqqulov, 2007:38]. Ana shu bosqichlarni bosib o'tgan har bir inson ishqning asl mohiyatini anglab yetadi. Suvrati-yu siyrati shu istiloh bilan orom topadi va qalban unga tobe bo'ladi. Lutfiy she'riyatida ana shunday xayoloti hamda butun vujudida haqiqiy ishq makon tutgan lirik qahramonning siyrati haqqoniy va ta'sirchan bo'yoqlarda mahorat bilan tasvirlangan. Mana bu ruboiy ham ushbu fikrlarga asos bo'la oladi.

Mazkur baytda shoir ishq dardiga yo'liqqan oshiq holatining tasvirini bergan. YA'ni baytning dastlabki misrasida oshiq Layli timsoliga murojaat qilib, holidan xabar olish uchun hech bo'lmaganda xayolini yuborishni iltimos qilayotgan bo'lsa, ikkinchi misrasida yorning ishq oshiqning ahvolini Majnun holidan ham battar yomon ahvolga solgani tasvirlangan. Aytish joizki, bayt zamirida ishqning ham dunyoviy, ham diniy talqini aks etganini ko'rish mumkin. Chunki "Shoir lirikasida ancha keng

o'rin tutgan dunyoviy mavzular ayni paytda, diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi" [Mo'llaxo'jayeve, 2019:215]. Bu o'rinda shoir Layli timsolini suyakli yor ma'nosida qo'llangan.

Intizori yo'li ustida qo'yub ketti ko'zung,
Bizni ul Layli sifatliq misli Majnun ayladi.

Ushbu baytda Layli timsoli shoir Lutfiy talqinida go'zal suyakli hilqat sifatida ta'riflanadi. Chunki shoir qalamga olgan Layli sifatli yor oshiqni misoli Majnun holiga solishi, hatto yo'lga intizor aylab, ko'zlarini yo'lga qadab ketishi mahorat bilan tasvirlangan. Chunki "Oshiqlik – zo'rlik emas, zorlik, manmanlik emas, niyozmandlik" [Ochilov, 2004:64]. Bu holatni faqat haqiqiy ishq sohiblarigina idrok eta oladi.

Lutfiy she'riyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, an'anaviy obrazlar misolida "Ishq" tushunchasini yashirin oshkor etganiga amin bo'lamiz. Chunki shoir uni ochiq ifoda etishdan chekinib, timsollar siyrati va xatti-harakatida namoyon etadi.

Qildi Shirin xandasidin muftalo Farhodni,
Kirdi Layli ko'zig'a, Majnunni shaydo ayladi.

Malumki, Shirin ham, Layli ham go'zallik, nafosat, hayo borasida tengsiz obrazlar sanaladi. Taqdir ularni biri-biridan o'zadigan mard yigitlarga duch qildi. Bu vaqtda Shirin o'zining yoqimli kulgusi bilan Farhodni muftalo qilgan bo'lsa, Layli Majnun ko'ziga bir bor ko'rinish berganday shaydo qilganligi borasidagi tasvirlar shoirning o'ziga xos mahoratini namoyon etgan hamda Layli timsoli Majnunga suyakli yor ma'nosini anglatgan.

Xulosa va takliflar. Xullas, shoirlar ijodida qo'llangan "Layli" timsoli xususida ko'plab mulohazalar bildirish mumkin. Chunki bu obraz ular ijodida rang-barang ma'no-mohiyat kasb etganligi bilan ajralib turadi. Lutfiy va H.Xorazmiy she'riyatida qo'llangan Layli timsoli o'zi anglatgan mazmun- mohiyati bilan g'azal badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, u shoirning ichki kechinmalari va xohish - istaklarini namoyon eta olgan. Ta'kidlash joizki, Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy "Layli" timsoli misolida ajdodlar merosini avlodlar yodida saqlanib qolishiga munosib hissa qo'shgan. Bugungi ijodiy jarayonda bu kabi obrazlar deyarli ko'zga tashlanmaydi. Shoir va yozuvchilarmiz ijodiy ishlarida mazkur timsollarga murojaat qilsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent. Fan, 1976.
2. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. –Toshkent: Fan, 1996.
3. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. –Toshkent: Sharq, 2007.
4. Erkinov S. Lutfiy. Maqola // Ma'naviyat yulduzlari. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
5. Lutfiy. Devon. Erkinov S. So'zboshi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2012.
6. Mo'llaxo'jayeve K. Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi. –Toshkent: Akademnashr, 2019.
7. Ochilov E. "Majnun – Haq oshig'i" // Navoiyga armug'on. (Maqolalar to'plami). 4-kitob.-Toshkent, 2004.
8. Yusupova D. Navoiyshunoslik. –Toshkent: Tamaddun, 2018.
9. www.xabar.uz